

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“MOLIYAVIY TAHLIL” KAFEDRASI

XOSHIMOV SHUHRAT ELMURODOVICH

**“KORXONALARDA BANK KREDITLARI HISOBI VA
TAHLILI”**

5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit (real sektor bo‘yicha)”
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Fakultet dekani

_____ i.f.n., dots. K.D.Karimova

“ ____ ” _____ 2018 yil

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Moliyaviy tahlil” kafedrasi mudiri

_____ i.f.n., dots. M.Yu. Raximov

“ ____ ” _____ 2018 yil

Ilmiy rahbar:

kat.o‘q. N.N.Mavlanov

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. KORXONALARDA BANK KREDITLARI HISOBI VA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1 Korxonalarda bank kreditlaridan foydalanishning ahamiyati va mohiyati.....	6
1.2 Korxonalarda bank kreditlari hisobi va tahlilining nazariy va uslubiy jihatlari.....	12
1-bob bo'yicha xulosa.....	18
2-BOB. KORXONALARDA BANK KREDITLARI HISOBI.....	20
2.1 Korxonalarda bank kreditlari bo'yicha muomilalar hisobini hujjatlashtirish.....	20
2.2 Kredit foizlari, jarimalar hisobi va ularni takomillashtirish yo'llari.....	28
2.3 Korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari	32
2-bob bo'yicha xulosa.....	38
3-BOB. KORXONALARDA BANK KREDITLARI TAHLILI .	40
3.1 Korxonalarda bank kreditlari muddati va maqsadliligi tahlili.....	40
3.2 Korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanishning kompleks tahlili.....	45
3-bob bo'yicha xulosa.....	50
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	55

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Ayniqsa keyingi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida keng islohotlarning amalga oshirilishi kelgusida barqaror rivojlanishga zamin yaratib bermoqda. Iqtisodiyotimiz “lokomotivi” bo‘lgan bank tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qonun, qaror va farmonlarning qabul qilinishi ushbu sohaning zamon bilan hamnafas rivojlanishining amaliy ifodasidir.

Jumladan, 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida “bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish”¹ ga alohida e‘tibor qaratilgan.

Respublikamiz rahbari ta’kidlaganidek mamlakatimizda bank tizimini takomillashtirish bilan mutanosib ravishda korxonalarda bank kreditlari hisobi va tahlilning nazariy va amaliy muammolari echimini berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bu borada mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy islohotlardan bo‘lib, bank tizimi va korxonalar uchun yangi qaror va farmonlarning amaliyotga joriy etilishi buning yaqqol misolidir.

Korxonalarda bank kreditlari hisobi va tahlilini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, uni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Mamlakatimizda bank kreditlari hisobi va tahlilining nazariy va amaliy asoslari iqtisodiy adabiyotlarda chuqur tadqiq etilmagan. Bank kreditlari hisobini to‘g‘ri yuritish vaularidan samarali foydalanishni aniq va keng ko‘lamli

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

tahlil qilish borasida qator ishlarni amalga oshirishning ob'ektiv zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, korxonalarda bank kreditlari hisobi va tahlilini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obykti. Bitiruv malakaviy ishi obykti qilib, "NA'F" mas'ulyati cheklangan jamiyati ma'lumotlari olindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bank kreditlari hisobi va tahlilini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

– korxonalarda bank kreditlari hisobining nazariy va uslubiy asoslarini yoritib berish;

–bank kreditlari tahlilini nazariy jihatlarini atroflicha yoritib berish;

– korxonalarda bank kreditlari hisobini xujjatlashtirish mexanizmini yaratish;

– korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy takliflar berish;

– korxonalarda bank kreditlari muddati va maqsadliligi tahlilini atroflicha yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, nutqlari va maqolalari, chet el va respublikamizdagi iqtisodchi olimlarning ilmiy nashrlari tashkil etadi. Mazkur tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar ham o'rganib chiqildi.

Ushbu tadqiqot natijasida yaxlit xulosaga kelish va mantiqiy bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga tizimli yondoshildi, iqtisodiy tahlilning matematik usullaridan, statistik va boshqa ilmiy-mantiqiy usullaridan ham keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining qisqacha tavsifi. Ilmiy ish kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

1-BOB. KORXONALARDA BANK KREDITLARI HISOBI VA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Korxonalarda bank kreditlaridan foydalanishning ahamiyati va mohiyati

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda korxonalarda moliyaviy aktivlar sotib olishga asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Kreditlash orqali aholining, korxonaning va davlatning bo'sh turgan pul mablag'lari banklarda to'planadi hamda muayyan haq evaziga vaqtincha foydalanish uchun xo'jalik sub'ektlariga beriladi.

Korxonalar ham o'z faoliyatlarini uzluksiz davom ettirishlari uchun o'zlarida qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj bank kreditlari hisobidan qoplanilishi mumkin.

Ishlab chiqarish vositalari ko'rinishidagi kapitalning tarmoqdan-tarmoqqa o'tish imkoniyatlari juda cheklangan. Lekin iqtisodiyotda har doim iqtisodiy resurslarni, eng avvalo kapitalni tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash zaruriyati mavjud bo'ladi. Bu vazifani eng oqilona tarzda kredit mexanizmi va uning tarkibiy qismi bo'lgan bank krediti bajaradi.

Bank krediti vositasida moliyaviy resurslar pul kapitali sifatida jamlanadi hamda tarmoqlar va korxonalar o'rtasida bozor mezonlari asosida taqsimlanadi. Kreditni belgilangan muddat davomida qaytarish va kreditdan foydalanganlik uchun muayyan haq to'lash zarurligi kreditga olingan mablag'lardan yuqori samara bera oladigan faoliyat sohalarida foydalanishga majbur etadi. SHunday qilib, kredit iqtisodiyot samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Bank kreditining muhim vazifalaridan biri - bu ishlab turgan korxonalar mablag'lari doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Bu asosan qisqa muddatli kreditlash vositasida amalga oshiriladi. qisqa muddatli kredit korxonalar ishlab chiqarish zahiralari to'ldirishga, tovar-moddiy boyliklarini sotib olishga, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish jarayonida vujudga kelgan mablag'larning vaqtincha etishmovchiligini to'ldirishga va

boshqa shu kabi maqsadlarga yo'naltiriladi. Korxonalarda bank kreditlaridan foydalanilishi orqali ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlashga, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish orqali maxsulot sifatini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

Bank kreditlari korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi tufayli xalq xo'jaligida foydaning kapitallashuvi jarayonlarini tezlashtiradi. Bu bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish bosqichida, mamlakatda qo'shimcha ish joylarini yaratish nihoyatda zarur bo'lgan davrda juda muhim ahamiyatga ega.

Bank krediti mamlakatda pul massasi, hajmi va tarkibiga, to'lov oborotiga, pul muomalasi tezligiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bank vekselar, obligatsiyalar, sertifikatlar va boshqa muddatli majburiyatli qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali kredit pullarini vujudga keltiradi. Berilgan kredit mablag'lari bilan bir qatorda kredit pullari ham mamlakatda jami talabga ta'sir ko'rsatadi va jami milliy mahsulot sotilishini tezlashtiradi.

Banklar tomonidan kredit berishning umumiy qoidalari davlat tomonidan belgilab beriladi va bu jarayonni o'z vakolatlari doirasida Markaziy Bank amalga oshiradi. Muayyan tarmoqlar va sohalarning rivojlanishini rag'batlantirish maqsadlarida qarz oluvchilarning turli guruhlariga davlat kafolatlari va imtiyozlari joriy etiladi. Kreditdan mamlakat eksport potensialini yuksaltirish, uy-joy qurilishini, kapital qo'yilmalarni rag'batlantirish, regionlarni jadal rivojlantirish maqsadlarida foydalanish mumkin.

Tijorat banklarining kreditlari yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. qaytarilish muddatlariga qarab kreditlar qisqa muddatli (1 yilgacha), o'rta muddatli (1yildan 5 yilgacha) va uzoq muddatli (5 yildan ortiq) kreditlarga bo'linadi. qisqa muddatli kreditlar odatda aylanma kapital (aylanma mablag'lari) ni harakatlanishi bilan bog'lik, uzoq muddatli kredit asosiy kapital (asosiy fondlar) ni takror ishlab chiqarilishi bilan bog'lik maqsadlarga yo'naltiriladi. Amaldagi tartib bo'yicha bank kreditlari berilish muddatiga ko'ra uch turga

bo‘linsada, barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardagi kabi aksionerlik jamiyatlarida ham ularni hisobga olib boruvchi 2 ta hisobvaraqa mavjud.

Ta’minot shakliga ko‘ra bank kreditlari garovli, kafolatli va sug‘urtalangan kreditlarga bo‘linadi. Ta’minlanishi talab etilmasdan berilgan kreditlar ishonch (blank) krediti deb yuritiladi. Aksionerlik jamiyati bankdan ishonch kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lsa, kredit olish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim unumsiz xarajatlarni tejash imkoniyati vujudga keladi. Masalan, garovga qo‘yilayotgan mulkni baholash, majburiy garov sug‘urtasi uchun sug‘urta badalini to‘lash, garov shartnomasini notarial idoralar tomonidan tasdiqlatish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish xarajatlari tejalishi mumkin. Bundan tashqari kreditni rasmiylashtirish uchun sarflanadigan vaqt ham tejaladi. Aksionerlik jamiyatlari kredit mablag‘iga zaruriyat paydo bo‘lgandan so‘ng bank bo‘limiga murojaat qilishlarini hisobga oladigan bo‘lsak, bank bo‘limiga ariza berilishi va kredit qarzi haqiqatda olinishi o‘rtasidagi farq kam bo‘lishi naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi ayon bo‘ladi.

Bank krediti muddatlilik, qaytaruvchanlik, ta’minlanganlik, maqsadlilik va to‘lovlilik qoidalari asosida beriladi.

Muddatlilik - kreditga berilgan mablag‘lar qaytarilishini ta’minlashning zaruriy vositasidir. qat’iy belgilangan muddatda qaytarilmagan kredit pul muomalasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u muomalada tovar ta’minotiga ega bo‘lmagan pul mavjudligini bildiradi. Kreditga berilgan pul mablag‘i bankka qaytib kelmasligi sababli, shu kredit resurslardan boshqa xo‘jalik yuritish sub’ektlari mahrum etiladilar. Tijorat bankining likvidliligi yomonlashadi. Bulardan tashqari, qarzdorning o‘zi ham bankdan yangi kredit olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi va kechiktirilgan kredit uchun oshirilgan foizlar to‘lashga majbur bo‘ladi. Bundan tashqari, barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan, shu jumladan aksionerlik jamiyatlari tomonidan ham, bank kreditini shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda qaytarilmaganligi uchun to‘lanadigan foiz summasi soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo‘shiladi va foyda solig‘iga

tortiladi. Bu esa o'z navbatida unumsiz xarajatlarni ortishiga va foyda (daromad) ni kamayishiga sabab bo'ladi.

Tijorat banki kredit berishda mijozlarning moliyaviy ahvoli, balansining likvidligi, o'z mablag'lariga ega ekanligi, hozirda va kelajakda rentabellik darajasi va kreditdan samarali foydalanishi va uni qaytarish imkoniyatlarini xarakterlovchi boshqa sifatlariga alohida e'tiborni qaratishi lozim. Bank kredit berishda har bir mijozga alohida yondoshadi.

Kreditning to'lovliligi qarzdor bankka kreditdan foydalanganligi uchun hak to'lashi lozimligini bildiradi. To'lanadigan hak kredit summasiga nisbatan foizda belgilanadi. Bank amaliyotida yillik (kreditdan bir yil foydalanganlik uchun foiz darajasi) yoki oylik (kreditdan bir oy foydalanganlik uchun foiz darajasi) foizlar qo'llaniladi. Kredit uchun foiz darajasi o'z mohiyatiga ko'ra kreditning bahosidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qarzga berilayotgan mablag' o'ziga xos tovarga aylanadi. Bu tovarning boshqa tovarlardan farqi shundaki, uning o'zi emas, balki undan foydalanish imkoniyati (huquqi) sotiladi va buning uchun foiz ko'rinishida haq to'lanadi. Kreditning to'lovliligi qarz oluvchilarni imkoni boricha o'z mablag'laridan samarali foydalanishga majbur qiladi. Olingan foiz vositasida bank o'z mablag'laridan samarali foydalanishga majbur qiladi, shuningdek bank o'z xarajatlarini qoplash va jalb etilgan mablag' egalari foiz to'lash imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Kreditlash jarayonida bank bilan qarzdorlarning o'zaro munosabatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qarz oluvchining o'z mablag'larini ham qarz yo'naltirilayotgan xo'jalik tadbirlarida ishtipok etishi va bu ishtirokning tarkibi va darajasini aniqlab olish. Qarz oluvchi o'z mablag'larining kredit yo'naltirilayotgan tadbirlarda ishtiroki qat'iy belgilab qo'yilgan emas. Biroq, bank mijozining kredit qobiliyatini aniqlash orqali uning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligini hisobga olgan holda kredit beradi;

- Kreditning aniq maqsadlarga berilishi. Kredit bank tomonidan korxonaga aniq maqsadlarga ishlatish uchun beriladi. Bu maqsadlar korxonaga taqdim

etadigan biznes-rejada o'z ifodasini topadi. Bank kreditning maqsadli ishlatilishini tekshirib boradi. Bozor munosabatlari chuqurlashuvi bilan xo'jalik ob'ektlarini kreditlashdan xo'jalik sub'ektlarini, ularning to'lov oborotidagi uzilishlarni kreditlashga o'tib boriladi;

- Kreditlash usullari. Bu kreditning berilishi va qaytarilishi usullaridir. Tijorat banklarida kreditlashning ikki xil usuli qo'llaniladi. Birinchisida kredit muayyan maqsadga va muayyan muddatga beriladi (kredit liniyasini ochmasdan). Ikkinchi usulda bank tomonidan belgilab qo'yilgan limitdan ortmagan holda kreditlash amalga oshiriladi. qarzdorning ehtiyojlariga muvofiq ravishda muayyan davr mobaynida uning to'lov hujjatlari bank tomonidan kredit hisobidan to'lab beriladi (kredit liniyasi ochish).

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash yoki yaqin orada boshqa biron bir xarajat qilish zarur bo'lsayu, lekin buning uchun korxonaning xususiy kapitali etmasa, bunday hollarda «korxonada bir gallik qarz mablag'lariga ehtiyoj tug'iladi» deyiladi. Bu ehtiyojni qondirish uchun «kredit liniyasi ochilmagan» ssuda hisobvarag'idan foydalaniladi.

Bunday hisobvaraqdan kredit berish bir gallik ssuda berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday ssudaning har biri uchun bank alohida qaror qabul qiladi. Bu shuni bildiradiki, agar kelgusida yana kredit zarur bo'lsa, korxonaning rahbariyati bank talab qilgan hujjatlarning yangi to'plamini to'liq ishlab chiqishi, xuddi birinchi kredit olganidek muzokaralar olib borishi va barcha huquqiy rasm-rusumlarini bajarishi lozim. Bu esa, barcha qarz oluvchilar, shu jumladan aksionerlik jamiyatlari ham kredit olish uchun bank talab qilgan hujjatlar to'plamini yangidan qilish uchun qo'shimcha unumsiz xarajatlarni qilishi zarurligini anglatadi.

SHuning uchun, agar kredit resurslariga ehtiyoj uzoq muddatli va takrorlanuvchan ekanligi oldindan tahlil qilinsa, « kredit liniyasi ochiq» kredit berish to'g'risida shartnoma tuzish qulayroq ekanligi va arzonligi ayon bo'ladi. Kredit liniyasi - bu korxonaning bilan bank o'rtasida «belgilangan summada qarzlarni turkumini berish» to'g'risida tuziladigan kelishuvdir. Kredit liniyasini

ochishda bank tomonidan kreditlash limiti belgilanadi. SHu limit doirasida kredit berishda bank bilan qo‘shimcha muzokaralar olib borish talab qilinmaydi.

Har kaday jamiyatda kreditning zaruriyatini belgilovchi bir qator omillar mavjud. Umuman, tovar ishlab chiqarish mavjud ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda kreditning zaruriyatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib tovar ishlab chiqarish va pul muomalasining mavjudligi hisoblanadi.

Korxonalarda kreditning zaruratini belgilovchi omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- 1) fondlarning aylanish xususiyatlari;
- 2) korxonalarining o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyillarida faoliyat ko‘rsatishi.

Birinchi holda, xalq xo‘jaligida mavjud korxonalar, tashkilotlar ishlab chiqarish faoliyatini yurgizish uchun ma‘lum miqdorda asosiy va aylanma fondlarini tashkil etilishi lozim. Korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz olib borilishi katta miqdordagi aylanma mablag‘ni talab qiladi va ko‘p hollarda bu mablag‘ korxonalar ixtiyorida bo‘lmaydi. CHunki, ishlab chiqarishning boshlanishi bilan mahsulotni sotish jarayoni bir vaqtga mos kelmaydi, bundan tashqari ishlab chiqarish sikli har xil tarmoqlarda har xil kechadi.

Kreditning zaruratini belgilovchi ikkinchi omil bo‘lib, korxonalarining xo‘jalik hisobi tamoyillarida ishlashi hisoblanadi. Ma‘lumki, har bir korxonalar o‘z ishlab chiqarish faoliyatini o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirishi va moliyalashtirishi kerak. Ammo, korxonalar bu maqsadlari uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini etarli darajada kerak bo‘lgan muddatda tashkil eta olmasliklari mumkin. SHunday vaqtda, ular o‘z ehtiyojlarini kredit orqali qondiradilar. Masalan, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini qayta jihozlamoqchi yoki takomillashtirmoqchi bo‘lsa, unga katta miqdordagi pul mablag‘lari talab qilinadi. Bu jarayonlarni amalga oshirish manbalari - amortizatsiya ajratmalari hisobidan yoki aksionerlik jamiyatlarida qo‘shimcha aksiya chiqarib sotish orqali amalga oshirilsa, u holda uzoq muddat kutish kerak bo‘ladi. Bu vaqtning o‘zida rejalashtirilgan loyiha ma‘naviy eskirishi mumkin. Natijada

mo'ljallangan maqsadga erishilmaydi va davr talabiga javob berilmaydi. Ana shunday sharoitda korxonalarining xo'jalik hisobi prinsiplariga rioya qilib, ish olib borishlari uchun bu mablag'lar bilan ta'minlash mexanizmi - kreditga zaruriyat tug'iladi.

Kreditning qator funksiyalari mavjud bo'lib, ular orqali kreditning mohiyati to'liq ochib beriladi.

Kredit quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) bo'sh pul mablag'larini akkumulyasiya qiladi (ssuda fondini tashkil qiladi);

2) ssuda fondini taqsimlaydi (Bu funksiya ko'pgina o'quv qo'llanmalarida kreditni taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi sifatida beriladi);

3) qo'shimcha muomala va to'lov vositalari, ya'ni yangi pul yaratadi.

Kreditning birinchi funksiyasi orqali jamiyatda mavjud bo'sh pul mablag'lari umumlashtiriladi va yagona ssuda resurslari fondi yaratiladi. Bu fondning yaratilishi faqatgina kredit orqali amalga oshirilishi mumkin. Chunki, u qaytarib berish va manfaatdorlik prinsiplariga bo'ysunadi.

Kreditning ikkinchi funksiyasida yig'ilgan pul mablag'lari ssuda sifatida taqsimlanadi va tarmoqlarda qayta taqsimlanadi. Bunda ham berilayotgan ssudalar kreditning xususiyatlariga to'liq rioya qilgan holda muddatida qaytarib berish sharti va manfaatdorlik prinsiplarini ifodalaydi.

Kreditning o'ziga xos bo'lgan funksiyalaridan biri bu qo'shimcha to'lov va muomala qurollari yaratish funksiyasidir.

1.2. Korxonalarda bank kreditlari hisobi va tahlilining nazariy va uslubiy jihatlari

Korxonalar o'z xo'jalik faoliyatini tashkil qilish jarayonida turli sabablarga ko'ra o'z mablag'lari shu faoliyatni normal davom ettirish uchun ularning ehtiyojlarini qondirmay qolishi mumkin. Bunday paytlarda korxonalar bank kreditlaridan foydalanadilar. Korxonalarining aylanma mablag'larini hosil qilishda kreditlar juda katta ahamiyatga ega. Ayrim korxonalarda tovar moddiy

boyliklar zaxiralarining 50% gacha qismi bank kreditlari hisobidan tashkil topadi. SHunday ekan bank kreditlarini o'z vaqtida va to'g'ri etkazib berilishi korxonaga rivojlanish istiqbolini ochib beradi.

Korxonalarda bank kreditlari hisobining iqtisodiy adabiyotlarda yoritilishi holatini o'rganib chiqqanimizda bu mavzuga deyarli barcha adabiyotlarda etarlicha e'tibor qaratilmaganligi ko'zga tashlanadi. Bu esa bank kreditlarining hisobini nazariy va uslubiy jihatdan o'rganishni va rivojlantirishni talab etadi.

Quyida kredit operatsiyalarining hozirgi holatini yoritishga va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritishga oid fikr-mulohazalarimizni bayon etamiz.

Korxonada bankdan kredit olish uchun kredit olish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi. Arizada so'ralayotgan kredit summasi, ta'minot sifatida taklif qilinayotgan mol-mulklar, kreditni qaytarilish muddatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. Kreditdan qanday maqsadlarda foydalanilishi ko'rsatilgan biznes - reja;
2. Hisobotlar. (Oxirgi hisobot davri uchun: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari holati haqidagi ma'lumot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot).

Taqdim qilingan hisobot ma'lumotlarini to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun hisobot ma'lumotlari Davlat Soliq Inspeksiyasining joylardagi bo'limi tomonidan tasdiqlangan holda taqdim qilinishi talab qilinadi. Bunga sabab qarz oluvchilar tomonidan hisobot ma'lumotlarini suniiy ravishda oshirib ko'rsatib, kreditga layoqatlilik darajasini xato aniqlanishini oldini olishdan iborat.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarni to'g'riligiga to'la ishonch hosil qilish uchun tekshiruv faqatgina hisobot ma'lumotlarini tekshirish bilan yakunlanmasdan kredit oluvchi korxonaga borib mavjud holatga to'raligicha baho berib tekshiruv o'tkazilishi mumkin. Bunda hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi boshlang'ich xujjatlarga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Bu usuldan tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan holatlarda foydalanish maqsadga muvofiq

hisoblanadi. YA'ni katta miqdorda kredit berilayotganda yoki sinalmagan mijozlarga kredit berilayotganda.

Taqdim qilingan hisobot ma'lumotlari asosida bank kredit oluvchi korxonaning balansini o'rganib, moliyaviy holatini har tomonlama tahlil qilgan holda kreditga layoqatlilik darajasini aniqlashi mumkin.

YUqorida ko'rsatib o'tilganidek, kredit oluvchi korxonalar bank tomonidan to'rt toifaga bo'linadi. Birinchi toifaga mansub korxonalarga hech qanday qo'shimcha hujjatsiz, kredit shartnomasi tuzish orqali ishonch krediti berilishi mumkin.

Ikkinchi va uchinchi toifali korxonalar kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi lozim:

1. Mulk garovi yoki kafolat xati.
2. Garovga qo'yilgan mulkning o'ziga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjat.
3. Garovga qo'ygan mulkini sug'urtalanganligi to'g'risidagi hujjat.

YUqoridagi hujjatlar taqdim qilingandan keyin mijoz bilan bank o'rtasida garov shartnomasi tuziladi. Garov shartnomasi notarial idoralar tomonidan tasdiqlanib, unda quyidagi shartlar keltiriladi:

1. Garovga qo'yilgan mulk va uning egasining nomi keltirilib, mulk qiymati kelishiladi.
2. Garov muddati.
3. Garovga qo'yilgan mulkning qaerda saqlanishi.
4. Undan garovga qo'yuvchining foydalanish imkoniyati.
5. Kredit qaytarilmay qolgan taqdirda garovga qo'yilgan mulk sotilishi mumkinligi.

Garov shartnomasi notarial idora tomonidan tasdiqlanib, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Garov shartnomasi tuzilayotganda, notarial idora garovga qo'yilayotgan mol-mulklarning garovga qo'yuvchiga haqiqatda tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etilishini talab qiladi.

Korxonalarda bankdan olingan kreditlar qisqa va uzoq muddatli bank kreditlariga bo‘lingan holda hisobga olib boriladi.

Yangi schyotlar rejasiga asosan esa A.Sotvoldiev, F.Itkinlar tomonidan 6810-"Qisqa muddatli bank kreditlari" hisobvarag‘ining kreditida va 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag‘lari", 5020-"Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari", 5110-"Hisob-kitob schyoti", 5210-"Mamlakat ichidagi valyuta schyotlar", 5530-"Boshqa maxsus schyotlar", 6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” (joriy qismi), 7010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar" (uzoq muddatli qismi) va shu kabi hisobvaraqlarning debetida aks ettirilishi ko‘rsatilgan.

Bank kreditlarini qaytarilishi summalariga 6810 - "Qisqa muddatli bank kreditlari" hisobvarag‘i debetlanib, pul mablag‘lari hisobvarag‘laridan biri kreditlanadi. Bu muomalalarni quyidagicha chizma ko‘rinishida aks ettirishimiz mumkin.

Amaldagi schyotlar rejasiga asosan A.Sotvoldievning fikricha 7810-"Uzoq muddatli bank kreditlari" hisobvarag‘ining kreditida va 5010- "Milliy valyutadagi pul mablag‘lari", 5020 –"Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari", 5110 – "Hisob-kitob schyoti", 5210 – "Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari", 5530 – "Boshqa maxsus schyotlar", 6010 - "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” (joriy qismi), 7010 - "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” (uzoq muddatli qismi) va shu kabi hisobvaraqlar debetida aks ettirilishi ko‘rsatilgan (110). qaysi hisobvaraqlar debetlanishi kreditning o‘aysi ko‘rinishda berilishiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni naqd pul shaklida bo‘lsa 5010-hisobvaraqlar debetlanadi, naqd pulsiz hisob kitob shaklida bo‘lsa 5110-hisobvaraqlar debetlanadi, chet el valyutasi shaklida bo‘lsa 5020 va 5210-hisobvaraqlardan biri debetlanadi va hokazo.

Hozirgi kunda amaliyotda bank krediti "Hisob-kitob schyoti"da emas, balki, maxsus kredit schyoti ochish orqali beriladi. Shuning uchun biz kredit muomalalarini quyidagicha hisobga olinishini taklif qilamiz.

Bank kreditlarini buxgalteriya hisobida hisobga olishning taklif qilinayotgan yo‘li²

№	Muomala mazmuni	Oldingi schyotlar rejasiga asosan		Amaldagi schyotlar rejasiga asosan	
		Dt	Kt	Dt	Kt
1.	Qisqa muddatli bank krediti olindi	55	90	5530	6910
2.	Uzoq muddatli bank krediti olindi	55	92	5530	7510
3.	Kredit hisobidan mahsulot sotib olindi	60	55	6010; 7010	5530

Kredit muomalalarini maxsus schyot orqali hisobga olib borilishi kredit muomalalari bo‘yicha ma’lumotlarni doimiy ravishda kuzatib borish imkoniyatini oshiradi, ya’ni bankdan qancha kredit olingan, qancha qismi qaytarilgan va hokazo. Bundan tashqari, kreditdan maqsadli foydalanilmayotganligi yoki biznes-rejada ko‘zlangan natijaga erishilmayotganligi aniqlansa, kredit resurslarini ishlatilmagan qismini oldindan qaytarib olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Korxonalar iqtisodiy harakatda, faoliyatda albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga etarli mablag‘ tadbirkorlarda doimo ham etarli bo‘lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlar biznes hayotini kuzatish shuni ko‘rsatadiki faoliyatni, biznesni 90 foizi(asosiy qismi) qarz kapitali hisobiga yo‘lga qo‘yiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, korxonalar doimo aniq biznes loyihalari, rejalari asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan naf ko‘radilar.

Korxonalarni kreditga layoqatligini baholashni tasdiq topgan me’yoriy aktlari va nizomlariga ta’yangan holda har bitta biznes subektini kreditni, qarzni qaytarib berish layoqati o‘rganilmog‘i lozim. Bu mezonlar O‘zbekiston

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot Vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar bilan ishlash Ko'mitasi va tegishli Vazirliklar tomonidan tuzib chiqiladi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta'sir etmaydi. YA'ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo'yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda muddatligi bo'yicha kreditlar va qarzlar uzoq, o'rta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli guruxga tarkiblash amaliyoti joriy etilgan.

Uzoq muddatli kreditlar -uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalar, nomoddik aktivlar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan asbob uskunalar yuzasidan, ularni sotib olish, qurish, ta'mirlash, ilmiy yangiliklar kiritish kabi yo'nalishlarda) moliyalashtirish yuzasidan bir yildan ortiq muddatga beriladi.

Qisqa muddatli kreditlar -joriy, aylanma aktivlarni to'ldirishga, savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha muddatga beriladi.

Korxonalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga va investitsion loyihalarga e'tiborni qaratishi lozim. Lekin ungacha albatta, ushbu korxonaning, moliyaviy ahvoli o'rganilmog'i lozim.

Kredit resurslarini jalb etishda risklarni baholash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratish zarur. Afsuski bu borada amaliyotda analitik echimlarning aniq metodologik jihatlari belgilanmagan.

Kredit arizasi bergan korxonaning moliyaviy tahlilida muhim ob'ekt sifatida birinchi navbatda uning to'lov layoqati, qoplash va avtonomiya koeffitsentlari baholanadi.

Korxonalar tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to'lovga qobilligiga balki uning mablag'larining harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog'liq. SHu sababli tahlil etishda buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida korxonalarning harakatchan mablag'larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlariga, nolikvid mablag'lar holatiga, ularning to'lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddati majburiyatlarga nisbatiga, doimiy

passivlarni nolikvid va likvid mablag'larni manbalashiga baho berish talab etiladi.

So'ngi paytlarda olingan kredit resurslarining o'z vaqtida va qaytmaslik holatlariga ko'p duch kelinmoqda. SHu sababli, korxonalarining kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo'shimcha mavzularni o'rganish tavsiya etiladi;

- korxonalarining rentabellik darajasi;
- aylanma mabalag'larning holati;
- o'z mablag'larini hajmi, ularning asosiy va oborot kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o'sish darajalari;
- to'lov muddati kelgan va o'tib ketgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
- korxonalarining pul va qimmatli qog'ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlarga ahamiyat beriladi.

1-bob bo'yicha xulosa

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda korxonalarda moliyaviy aktivlar sotib olishga asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Kreditlash orqali aholining, korxonaning va davlatning bo'sh turgan pul mablag'lari banklarda to'planadi hamda muayyan haq evaziga vaqtincha foydalanish uchun xo'jalik sub'ektlariga beriladi.

Ishlab chiqarish vositalari ko'rinishidagi kapitalning tarmoqdan-tarmoqqa o'tish imkoniyatlari juda cheklangan. Lekin iqtisodiyotda har doim iqtisodiy resurslarni, eng avvalo kapitalni tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash zaruriyati mavjud bo'ladi. Bu vazifani eng oqilona tarzda kredit mexanizmi va uning tarkibiy qismi bo'lgan bank krediti bajaradi.

Amaldagi schyotlar rejasiga asosan A.Sotvoldievning fikricha 7510- "Uzoq muddatli bank kreditlari" hisobvarag'ining kreditida va 5010- "Milliy valyutadagi pul mablag'lari", 5020 - "Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari", 5110

– “Hisob-kitob schyoti”, 5210 – “Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari”, 5530 – “Boshqa maxsus schyotlar”, 6010 - “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” (joriy qismi), 7010 - “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” (uzoq muddatli qismi) va shu kabi hisobvaraqlar debetida aks ettirilishi ko‘rsatilgan (110). qaysi hisobvaraqlarning debetlanishi kreditning o‘aysi ko‘rinishda berilishiga bog‘liq bo‘ladi, ya‘ni naqd pul shaklida bo‘lsa 5010-hisobvaraqlar debetlanadi, naqd pulsiz hisob kitob shaklida bo‘lsa 5110-hisobvaraqlar debetlanadi, chet el valyutasi shaklida bo‘lsa 5020 va 5210-hisobvaraqlardan biri debetlanadi va hokazo.

Kredit muomalalarini maxsus schyot orqali hisobga olib borilishi kredit muomalalari bo‘yicha ma‘lumotlarni doimiy ravishda kuzatib borish imkoniyatini oshiradi, ya‘ni bankdan qancha kredit olingan, qancha qismi qaytarilgan va hokazo. Bundan tashqari, kreditdan maqsadli foydalanilmayotganligi yoki biznes-rejada ko‘zlangan natijaga erishilmayotganligi aniqlansa, kredit resurslarini ishlatilmagan qismini oldindan qaytarib olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

2-BOB. KORXONALARDA BANK KREDITLARI HISOBI

2.1. Korxonalarda bank kreditlari bo'yicha muomilalar hisobini hujjatlashtirish

O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishda mahalliy sharoitni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos bo'lgan yangi yo'l tanlandi. Mulkchilikning barcha shakllariga teng sharoit yaratish, raqobat muhitini shakllantirish amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridandir. Mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish, milliy valyutamizning qadrini oshirish, ichki bozorimizni ham narxi bo'yicha, ham sifati bo'yicha maqbul bo'lgan mahalliy tovarlar bilan to'ldirish islohotlarning iqtisodiy sohadagi asosiy maqsadlaridandir. Bu maqsadga erishish uchun bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan tadbirlarning natijasi sifatida xalq xo'jaligining sanoat, qurilish, maishiy xizmat sohalaridagi deyarli barcha korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Davlat tasarrufidan chiqarishda turli xil suiste'molchiliklarni oldini olish maqsadida bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Birinchi bosqichda asosan maishiy xizmat, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari davlat tasarrufidan chiqarilgan bo'lsa, keyingi bosqichda sanoat ob'ektlari ham davlat tasarrufidan chiqarilishi boshlandi.

Korxonalarining mulki ta'sischi mulki bo'lib hisoblanadi. Korxonalar o'z faoliyati davomida aylanma mablag'lari etishmasligi natijasida bank kreditlaridan foydalanishi mumkin. Bankdan kredit olinishida esa korxonaga, ya'ni mohiyati bo'yicha ta'sischi'larga tegishli bo'lgan mol-mulklar garovga qo'yiladi.

Kreditdan foydalanish natijasida korxonalar olgan foydasi dividend tariqasida ta'sischi'larga orasida taqsimlanadi. Zarar ko'rilgan taqdirda yoki kreditni o'z vaqtida qaytarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, garovga qo'yilgan mulk ya'ni ta'sischi'larga mulki olingan kredit va kredit foizi sifatida kredit beruvchi tashkilot, ya'ni bankka to'lab beriladi. Demak korxonalar olgan

kreditdan to'g'ri foydalanmasligi yoki foydalana olmasligi natijasida ko'rilgan zarar ta'sisчилarning ham zarari bo'lib hisoblanadi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishda aylanma mablag'lar muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, elektr energiya boshqa resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo'llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo'llash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. SHuni ta'kidlashimiz mumkinki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish avvalambor aylanma mablag'lardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Qishloq xo'jaligi va shunga o'xshash boshqa tarmoqlarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank kreditini jalb qilish yo'li bilan qoplanishi mumkin.

Mavsum bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo, ta'minot va boshqalar)da aylanma mablag'larning aylanishi (mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) bir maromda kechishi mumkin. SHunga qaramasdan, nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol etkazib beruvchidan kelib tushishida, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayoni kechikkanda va boshqa holatlarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank krediti hisobiga qoplanishi mumkin.

Korxonalar va tashkilotlar o'zida mavjud zaxira va xarajatlar summasini xomcho't qilish asosida o'tgan davrda mavjud mablag'lar va kutilayotgan tushumlarni hisob-kitob o'lish yo'li bilan kreditga bo'lgan talabni aniqlaydilar.

Xo'jalik subektlarining aylanma mablag'lari quyidagi manbalar hisobidan tashkil qilinadi:

1. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari;
2. Bank kreditlari;
3. Kreditorlik qarzlari;
4. Boshqa manbalar.

Xo'jalik subektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini normal olib borish uchun tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarining minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

Korxonalarining o'z aylanma mablag'lari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- a) davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar hisobidan;
- b) yuqori tashkilotlarning ajratmalari;
- v) tasischilarning pay badallari;
- g) aksionerlik korxonalarida aksiyalar chiqarish va sotish yo'li bilan vujudga keladigan manbalar hisobidan.

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari uning kapitalida o'z ifodasini topadi. Ustav kapitali foyda hisobidan yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan ko'paytirib boriladi. Korxonaning o'z kapitalining miqdori qancha yuqori bo'lsa, uning faoliyati shunchalik boshqa kreditorlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni o'z aylanma mablag'larining yuqori salmog'i korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligidan dalolat beradi.

Aylanma mablag'larning ikkinchi manbasi bank krediti va boshqa qarz mablag'lari hisoblanadi. Korxonaning normal faoliyatini olib borishi uchun o'z aylanma mablag'lari etarli bo'lmasa, oborotga qisqa muddatli bank kreditlari jalb qilinishi mumkin.

2-jadval

“NA’F” va “BALSAM PHARM” ma’suliyati cheklangan jamiyatlarining aylanma mablag‘larining tashkil topish manbalari³

№	Manbalar	“NA’F” MCHJ			“BALSAM PHARM” MCHJ		
		2015	2016	2017	2015	2016	2017
1	O‘z aylanma mablag‘lari	95728	97388	96593	306948	315439	329541
2	Bank kreditlari	2391	9201	-	8907	11403	19501
3	Kreditor qarzlari	36817	33957	25659	18808	16115	13493
4	Boshqa manbalar	3008	930	1845	63612	113625	181800
	Jami:	137944	141476	124097	398275	456582	544335

Jadval ma’lumotidan ko‘rinib turibdiki «Juma paxta tozalash» aksionerlik jamiyatida 2015 yil 1-yanvar holatiga jami aylanma mablag‘lari 137944 ming so‘mni tashkil qilgan holda, o‘z aylanma mablag‘lari 95728 ming so‘mni, bank kreditlari 2391 ming so‘mni, kreditorlik qarzlari 36817 ming so‘mni va boshqa manbalar 3008 ming so‘mni tashkil qilmoqda. 2016 yil 1-yanvar holatiga esa jami aylanma mablag‘lari 141476 ming so‘mni tashkil qilgan holda, o‘z aylanma mablag‘lari 97388 ming so‘mni, bank kreditlari 9201 ming so‘mni, kreditorlik qarzlari 33957 ming so‘mni va boshqa manbalar 930 ming so‘mni va 2017 yil 1-yanvar holatiga jami aylanma mablag‘lari 124097 ming so‘mni tashkil qilgan holda, o‘z aylanma mablag‘lari 96593 ming so‘mni, kreditorlik qarzlari 25659 ming so‘mni va boshqa manbalar 1845 ming so‘mni tashkil qilmoqda. Ko‘rinib turibdiki jami aylanma mablag‘lari tarkibida barcha yillar bo‘yicha o‘z aylanma mablag‘larining ulushi yuqori bo‘lmoqda, bu holat korxonaning moliyaviy ahvoli ijobiylikidan dalolat beradi.

YUqorida keltirilgan jadvalda “NA’F” ma’suliyati cheklangan jamiyatidan tashqari “BALSAM PHARM” ma’suliyati cheklangan jamiyati aylanma mablag‘larining manbalari ham keltirilgan. “BALSAM PHARM” ma’suliyati cheklangan jamiyatida 2015 yil 1-yanvar holatiga jami aylanma mablag‘lari 398275 ming so‘mni tashkil qilgan holda, o‘z aylanma mablag‘lari 306948 ming so‘mni, bank kreditlari 8907 ming so‘mni, kreditorlik qarzlari

³ “NA’F” MCHJ va “BALSAM PHARM” MCHJ ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

18808 ming soʻmni va boshqa manbalar 63612 ming soʻmni tashkil qilmoqda. 2016 yil 1-yanvar holatiga esa jami aylanma mablagʻlari 456582 ming soʻmni tashkil qilgan holda, oʻz aylanma mablagʻlari 315439 ming soʻmni, bank kreditlari 11403 ming soʻmni, kreditorlik qarzlari 16115 ming soʻmni va boshqa manbalar 113625 ming soʻmni va 2017 yil 1-yanvar holatiga jami aylanma mablagʻlari 544335 ming soʻmni tashkil qilgan holda, oʻz aylanma mablagʻlari 329541 ming soʻmni, bank kreditlari 19501 ming soʻmni, kreditorlik qarzlari 13493 ming soʻmni va boshqa manbalar 181800 ming soʻmni tashkil qilmoqda. Koʻrinib turibdiki jami aylanma mablagʻlari tarkibida barcha yillar boʻyicha oʻz aylanma mablagʻlarining ulushi yuqori boʻlmoqda, bu holat korxonaning moliyaviy ahvoli ijobiylikidan dalolat beradi.

Korxonalarining moliyaviy ahvoli ijobiy boʻlsa, u oʻz vaqtida bank kreditini toʻlashi, mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilishi, ish haqini toʻlashi, byudjetga toʻlovlarni oʻz vaqtida amalga oshirishi mumkin.

Korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashganda toʻlanmagan qarzlarni hosil boʻladi. Toʻlanmagan qarzlarni:

- a) bank kreditlari;
- b) mol etkazib beruvchilarga oʻz vaqtida toʻlanmagan qarzlarni;
- v) ish haqi boʻyicha toʻlanmagan qarzlarni va boshqalar boʻyicha yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda aylanma mablagʻlar xoʻjalik subektlarining faoliyatining asosi boʻlib, shu jumladan korxonalarda ham, bank tomonidan beriladigan kreditlarning aksariyat qismi aylanma mablagʻlarga yoʻnaltiriladi. SHu tufayli har bir korxonada aylanma mablagʻlarini toʻgʻri tashkil qilmogʻi, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishmogʻi lozim.

6800-«Banklarning qisqa muddatli kreditlari» hisobvaragʻida mamlakat hududidagi va chet eldagi banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar hisob-kitoblari amalga oshiriladi. Uning analitik hisobi olingan qarzlarni turlari boʻyicha 38-qaydnomada, sintetik hisobi esa 4-jurnal orderda yuritiladi.

7900- «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» hisobvarag'ida esa davlatimiz va chet el valyutasida olingan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha banklar bilan hisob-kitoblar hisobga olinadi. Unda uzoq muddatli kreditlarning turlari bo'yicha subschyotlar ochiladi.

Korxonalarda o'rta muddatli kreditlarni hisobga oluvchi schyot mavjud bo'lmaganligi uchun, bu kreditlar hisobi hozirgi kunda uzoq muddatli kreditlarga qo'shib olib boriladi. YA'ni, 1 yildan ortiq muddatga olingan kreditlar «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» schyotida hisobga olib boriladi. Lekin o'rta va uzoq muddatli kreditlarni alohida hisobga olish kerak deb o'ylaymiz. SHuning uchun, biz yuqoridagi «Banklarning o'rta muddatli kreditlari» schyotini taklif sifatida kiritgan edik. Amaliyotga tadbiiq etilishi ko'zda tutilgan yangi schyotlar rejasiga asosan 7810 raqami bilan belgilab olinishini taklif qilamiz. «Banklarning o'rta muddatli kreditlari» schyotida davlatimiz hududida joylashgan va chet el banklaridan olingan o'rta muddatli kreditlar bo'yicha banklar bilan hisob-kitoblar hisobga olib borilishi ko'zda tutilgan. Unda o'rta muddatli kreditlar turlari bo'yicha subschEtlar ochilishi mumkin. Bu schyotning analitik hisobi o'rta muddatli kreditlarning turlari bo'yicha 38-qaydnomada, sintetik hisobi esa 4-jurnal orderda yuritiladi

Buning uchun esa bank kreditlari hisobi barchaga tushunarli tarzda hisobga olib borilishi kerak. Lekin shunga qaramay, korxonalarga olinayotgan kreditlar ular sarmoyasining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni iqtisodchi bo'lmagan shaxslarga ham tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun biz quyidagi shakldagi «Kreditlarni hisobga olib borish daftarini» joriy qilinishini taklif qilamiz. Bu daftarda har bir kredit olinishi holati uchun alohida sahifa ochib, bunda avvalo kredit shartnomasi imzolangan sana, kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasi, kredit ta'minoti (mulk garovi shaklida bo'lsa, mulklar ro'yxati va qiymati, garov shartnomasi tasqlangan sana va garov shartnomasi summasi, kafolat xati asosida bo'lsa, kafolat xati sanasi va summasi, kafolat beruvchi tashkilot nomi aniq ko'rsatilgan holda), kreditning qaytarilish muddati, kredit shartnomasi bo'yicha kreditdan

foydalanganlik uchun hisoblanuvchi foiz summasi va bu foizlarning to‘lanish muddatlari, haqiqatda kredit foizlarining hisoblangan va to‘langan muddatlari va summalari, agar kreditning muddati uzaytirilgin bo‘lsa, bu haqidagi qo‘shimcha shartnoma tuzilgan sana va kreditlar hisobini olib borish zimmasiga yuklatilgan mas’ul shaxs ismi-sharifi aniq ko‘rsatilishi, so‘ngra jadval ko‘rinishida kreditlarning olinishi va qaytarilishi aks ettirilishini taklif qilamiz. Taklif qilinayotgan kredit muomalalarini hisobga olish daftarida kredit muomalari bo‘yicha muomala mazmuni, summasi, sintetik va analitik ma’lumotlar aks ettiriluvchi xujjatlarning tartib raqamlari va kredit muomalari bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari aks ettiriladi.

Taklif qilinayotgan kredit muomalalarini hisobga olib borish daftarini yana bir afzallik tomoni shundaki, kredit oluvchilar bilan qiziquvchilar faqatgina ta’sislar yoki bank bo‘libgina qolmay ulardan boshqa foydalanuvchilar ham bo‘lishi mumkin. Bularga soliq inspeksiyasi xodimlari, prokuratura xodimlari, yuqori boshqaruv organlari (Vazirlik va boshqa idoralar) ni kiritish mumkin. Ular tomonidan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan tekshiruvlar davrida ham bu daftar juda qo‘l keladi. Chunki kredit muomalalariga taaluqli barcha ma’lumotlarni ushbu daftardan olish imkoniyati mavjud.

YUqorida keltirilgan “NA’F” MCHJ kredit muomalalari bo‘yicha sintetik va analitik hisob ma’lumotlarini quyidagi kredit muomalalarini hisobga olib borish daftarida aks ettiramiz:

3-jadval

Kredit muomalalarini hisobga olib borish daftar⁴

1. 2017 yil 16 dekabr.

Kredit shartnomasi imzolangan sana

2. 30000000(o‘ttiz mln. so‘m) _____

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasi

3. "NA'F" MCHJ ma'muriyati binosi _____

kredit ta'minoti (Mulk shaklida bo'lsa mulklar ro'yxati, garov shartnomasi tuzilgan sana va

_____2017 yil 10 dekabr_35.000.000.(o'ttiz besh mln. so'm) _____

garov shartnomasi summasi. Kafolat xati shaklida bo'lsa kafolat xati sanasi, summasi va

_____kafolat xati bergan tashkilot nomi)

4. 2018 yil 16 dekabr

Kreditning qaytarilish muddati

5. 120000 (Bir yuz yigirma ming so'm)_oyma-oy, har oyning 20 sanasida 10000 (o'n ming so'm)dan_____

Kredit foizi summasi va to'lash muddati

6._Barchasi o'z vaqtida to'lanib borilgan _____

Haqiqatda kredit foizlarini to'langan muddatlari va summalari

7.__Muddati uzaytirilmagan _____

Agar kredit muddati uzaytirilgan bo'lsa qo'shimcha shartnoma tuzilgan sana

8._Dilafuz Radjabova_____

Kreditlar hisobini olib borish zimmasiga yuklatilgan mas'ul shaxsning imi-sharifi.

(yanvar oyidagi muomalalar).

Muomalalar mazmuni	Summa	Nomer		Schyotlar	
		Qaydnoma	Jurnal order	Dt	Kt
Qisqa muddatli bank krediti summasi mol etkazib beruvchilardan mahsulot sotib olish uchun o'tkazildi	30000000	38	4	6010	6910

Qisqa muddatli bank krediti qisman o'aytarildi	4000000	38	4	6910	5110
Jami qoldiq	26000000				

YUqorida 3-jadvalda keltirilgan kredit muomalalarini hisobga olib borish daftari ma'lumotlaridan nafaqat ta'sischilar, balki kredit muomalalari ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi tekshiruv organlari ham foydalanishlari mumkin.

2.2. Kredit foizlari, jarimalar hisobi va ularni takomillashtirish yo'llari

Bank kreditidan foydalangan vaqt uchun to'lanadigan foiz kredit narxi hisoblanadi. Kredit narxi Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi me'yor bilan tartibga solinadi va mahsulot hamda xizmatlar tannarxi darajasini hisobga olib belgilanadigan eng yuqori ko'rsatkichdan oshib ketmasligi kerak. 2017 yilda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan kreditlarning eng katta qismi (jami kreditlarning 47,3 foizi) sanoatga yo'naltirilgan. Qishloq xo'jaligida bu ko'rsatkich - 4,4 foizni, moddiy-texnika ta'minotida - 9,0 foizni, transport va kommunikatsiya sohasida - 13,7 foizni, qurilishda - 3,4 foizni, savdo va umumiy ovqatlanishda - 4,6 foizni, uy-joy xizmatlari sohasida - 0,1 foizni, boshqa sohalarda-17,5 foizni tashkil etdi.

Muddati o'tgan kredit uchun foizlar 90 kungacha hisoblanadi. SHu vaqt ichida qarz qaytarilmasa, foiz hisoblash to'xtatiladi.

Muddati o'tgan foizlar bo'yicha qarz qoldig'i kredit shartnomasida ko'zda tutilgan tartibda to'lov talabnomasi yoki memorial order bilan rasmiylashtirilib, 12-sonli kartotekaga qo'yiladi, hamda kalendar navbatidagi tartibda so'ndirib boriladi. Bunda dastlab hisoblangan foizlar bo'yicha qarzlar va shundan keyin asosiy qarz qoplanadi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonunning 28-moddasiga ko'ra tijorat banklari mijozlar bilan shartnoma bo'yicha foizlar miqdorini mustaqil belgilash huquqiga egadirlar. YA'ni, qarz oluvchilar banklardan kredit olishdan

oldin o‘zaro kredit shartnomasini tuzadilar va kreditdan foydalangani uchun to‘lanadigan foiz shu shartnomaga asosan tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom» ga asosan bankdan olingan kreditga to‘lanadigan foizlar moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar tarkibiga kiritilib, qaytarilish muddati o‘tib ketgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan qayta moliyalash stavkasidan ortiqcha bo‘lgan kredit foizi bo‘yicha to‘lovlar qayta soliqqa tortiladigan bazaga qo‘shiladi va foyda (daromad) solig‘iga tortiladi. (Korxonalar xarajatlarining tasnifi 5-ildovada keltirilgan). O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan qayta moliyalash stavkasidagi qismi schyotlar rejasiga muvofiq moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar 9610 – «Foiz ko‘rinishidagi xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, ya’ni bankdan olingan kreditga to‘lanadigan foizlar buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

4-jadval

Kredit foizlarini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi⁵

№	Muomala mazmuni	Amaldagi schyotlar rejasiga asosan	
		Dt	Kt
1.	Bank kreditidan foydalanilganligi uchun foiz hisoblandi	9610	6820
2.	Hisoblangan kredit foizi to‘landi	6820	5110

Korxonalar bank kreditidan foydalanishiga sabab, ishlab chiqarish (ishlar, xarajatlar ko‘rsatish)ni rivojlantirishdan iborat. Bank kreditlari, yuqorida

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

aytib o‘tganimizdek, foiz to‘lash sharti bilan beriladi. Bank kreditlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini hisobga olib, kreditdan foydalanganligi uchun to‘lanadigan foiz mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga kiritilib, 2000- «Asosiy ishlab chiqarishlar», 2300- «yordamchi ishlab chiqarishlar» schyotlarida hisobga olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Agar bankdan olingan qisqa muddatli kredit asosiy ishlab chiqarishga sarflansa, kredit foizlari quyidagicha hisobga olinishi kerakligini taklif qilamiz:

5-jadval

Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan bank krediti bo‘yicha hisoblangan foizlarning buxgalteriya hisobida hisobga olinishi⁶

№	Muomala mazmuni	Amaldagi schyotlar rejasiga asosan	
		Dt	Kt
1.	Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan bank kreditidan foydalanilganligi uchun foiz hisoblandi	9110	6820
2.	Hisoblangan kredit foizi asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga o‘tkazildi	2010	9110

Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan qisqa muddatli bank kreditidan foydalanilganligi uchun hisoblangan kredit foizi summasi -jadvalda keltirilgan tartibda 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schyotiga o‘kazilgandan keyin boshqa asosiy ishlab chiqarish xarajatlari bilan birgalikda asosiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot tannarxini tashkil qiladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi orqali hisobga olinadi:

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

6-jadval**Ishlab chiqarish xarajatlarini tayyor maxsulot tarkibida hisobga olinishi⁷**

№	Muomala mazmuni	Amaldagi schyotlar rejasiga asosan	
		Dt	Kt
1.	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot kirim qilindi	2810	2010
2.	Xaridorlarga mahsulot sotildi	4010	6310 7310
3.	Sotilgan tayyor mahsulot xarajatlari hisobdan chiqarildi	9110	2810
4.	Sotilgan mahsulotning puli kelib tushdi	5110	4010 9010
5.	Mahsulot sotishdan foyda olindi	9110	9010

Agar bankdan olingan qisqa muddatli kredit yordamchi ishlab chiqarishga sarflansa, kredit foizlari quyidagicha hisobga olinadi:

7-jadval**YOrdamchi ishlab chiqarishga sarflangan kreditga hisoblangan foizning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi⁸**

№	Muomala mazmuni	Amaldagi schyotlar rejasiga asosan	
		Dt	Kt
1.	YOrdamchi ishlab chiqarishga sarflangan bank kreditidan foydalanilganligi uchun foiz hisoblandi	9110	6820
2.	Hisoblangan kredit foizi yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga o'tkazildi	2310	9110

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

YOrdamchi ishlab chiqarish deyilganda, asosiy faoliyatni tashkil qilish, mehnat sharoitlarini yaratish va asosiy faoliyatga bog‘liq bo‘lmagan, lekin korxonada amalga oshirilayotgan qo‘shimcha faoliyat turlariga aytiladi. YOrdamchi ishlab chiqarishga sarflangan kredit mablag‘i boshqa xarajatlar bilan birga, yordamchi ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisobiga o‘tkaziladi

2.3. Korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari

Korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun, jamiyatning kuzatuv kengashi qoshida bank kreditlaridan foydalanish istiqbollari baholash komissiyasi tashkil qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Komissiya tomonidan kreditga bo‘lgan zarurat va undan foydalanish darajasi, kredit resurslari bozoridagi raqobat muhiti va kreditni arzonroq bahoda, qulayroq shartlarda olish imkoniyatlari, kreditdan foydalanish natijasida olinishi ko‘zda tutilgan foyda miqdoriga erisha olish imkoniyati, kreditni qaytara olish qobiliyati, kredit shartnomasining shartlari va bu shartlarni bajara olish imkoniyatlari o‘rganib chiqiladi. Komissiya asosiy e‘tiborni kreditni korxonaga foydaliligi darajasini aniqlashga qaratadi. Komissiya tarkibiga korxonada rahbarining moliyaviy masalalar bo‘yicha muovini, bosh hisobchi, reja bo‘limi boshlig‘i, bosh muhandis bilan birga, albatta xolis auditor ham jalb qilinishi kerak deb hisoblaymiz. CHetdan auditor jalb qilinishi qo‘shimcha xarajatni talab qilsa ham, lekin ro‘y berishi mumkin bo‘lgan suiste‘molliklarning oldini olishga xizmat qilgani va xolislikni ta‘minlagani uchun ushbu chora ko‘rilishi to‘g‘ri bo‘ladi va korxonalarga faqatgina ushbu komissiyaning ijobiy xulosasi bo‘lgandagina kredit olinishi mumkin deb belgilanishi kerak deb hisoblaymiz.

Korxonalarda kredit olish zarurati tug‘ilganda yuqorida aytilgan tartibda tuzilgan komissiya masalani ko‘rib chiqib, ijobiy qaror qabul qilganidan va kreditni qaysi bank bo‘limidan, qanday shartlar asosida olinishi to‘g‘risida aniq

qaror shakllantirilganidan so'ng tanlangan bank muassasasiga murojaat qilinadi. Kredit ajratilishini so'rab taqdim etilgan ariza bank muassasasida bir necha bosqichda ko'rib chiqiladi. Bu bosqichlar quyidagi ketma-ketlikda bo'lishi mumkin:

1-bosqich.- kredit arizasini ko'rib chiqish va qarz oluvchi bilan suhbat.

2-bosqich.- kreditni qaytarish qobiliyatini o'rganish va tavakkalchilikni ssuda jihatidan baholash.

3-bosqich.- kredit shartnomasini tayyorlash va izohlash.

4-bosqich.- shartnoma shartlarining bajarilishi va kredit qaytarilishi ustidan nazorat.

Har bir bosqichda ish tartibi quyidagicha:

1-bosqichda: Mijoz bankka kredit olish uchun murojaat etadi, talab qilinayotgan kredit haqidagi ma'lumotlar (kredit olishdan maqsad, kredit hajmi, kreditning ko'rinishi va muddati, taklif qilinayotgan ta'minot) ko'rsatilgan kredit arizasi beriladi. Kredit berish haqidagi arizaga tegishli buxgalteriya hisobotlari va biznes-reja ilova qilinishi talab qilinadi.

Kredit arizasi bankning kredit xodimlaridan biriga topshiriladi. Xodim arizani ko'rib chiqgach, bo'lajak qarz oluvchi -korxonada vakili bilan suhbatlashadi. Bu suhbat berilayotgan kredit haqidagi savol echimida katta ahamiyatga ega, chunki u nafaqat kredit arizasini muhim tomonlarini aniqlab olishga, balki qarz oluvchining psixologik portretini tuzib olish, korxonada boshqaruvchilarining maxsus tayyorgarligini, ularning vaziyatni qanday baholayotganliklarini, korxonada rivojlanish imkoniyatlarini aniqlab olishiga imkon beradi.

Suhbat davomida kredit bo'limi xodimi o'z e'tiborini bankni eng ko'p qiziqtiradigan savollarga qaratishi lozim.

Savollarni 4-5 guruhga bo'lib olish tavsiya etiladi. Bu guruhlar bo'yicha savollar namunalari ishlab chiqilgan. Savol va javoblarni qarz oluvchining anketasi sifatida rasmiylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Kredit arizasini o'rganishi davomida kredit bo'limi xodimi korxonaga borishi va u erda tekshiruv o'tkazishi (boshqaruvchi shaxslar bilan suhbatlashishi) mumkin.

Moliya, operatsion va marketing xizmati boshqaruvchilari hamda ma'muriy xodimlarning bilimini aniqlash juda muhim.

Korxonaga tashrif vaqtida suhbat davomida ko'rib o'tilmagan ko'pgina savollarni aniqlash, shuningdek, korxonaning mulki binolari va qurilmalari holatini, ishchilarning odatlari va xulqini bilib olish mumkin.

Ikkinchi bosqich: Mijozning kredit qobiliyatini o'rganish eng muhim bosqich, chunki bu bosqichda kredit tavakkalchiligini (xavf-xatarini) minimallashtirish mumkin.

Qarz oluvchining kredit qobiliyati haqidagi asosiy axborot manbasi uning buxgalteriya hisobotlaridir.

Berilgan vaqt davomida pulning kelib tushishi ketishidan ko'p bo'lsa, bu mijoz kreditga layoqatli ekanligidan dalolat beradi. Agar aksincha bo'lsa kreditni qaytarilmaslik xatari oshadi.

Pul oqimi tahlili yangi kreditlar berish chegarasini ham ko'rsatadi. Bunday chegara bo'lib oldingi vaqtda bo'lgan yoki yangi davrga ehtimol qilinayotgan mablag' kelib tushishining ketishidan ko'pligi hajmi xizmat qilishi mumkin.

SHunday qilib, pul oqimi tahlili mijozning kreditga layoqatliligi haqidagi xulosani moliyaviy koeffitsientlar asosida sezilarli darajada to'ldiradi.

Uchinchi bosqich - Kredit shartnomasini tuzishga tayyorgarlik.

Ijobiy natijalar olingan holda bank kredit shartnomasini ishlab chiqishga kirishadi.

Kredit bo'limi xodimi mijozga bo'lajak kredit shartlari bo'yicha taklifni ko'rsatishi kerak. Bular foiz stavkasi, kreditni ochish, ta'minlash bo'yicha komissiya xulosasi va h.k. Uning taklifi mijoz arizasidan ancha farq qilishi mumkin. Muzokaralar davomida tomonlar kelishib oladilar. Xatoliklar ehtimollarini kamaytirish va mulohazalarning obüektivligini ta'minlash

maqsadida bank odatda kredit shartnomalari tuzish bo'yicha alohida javobgar shaxslarning haq-huquqlari chegarasini belgilaydi. Bu limit kredit summasi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq (muddat, kredit turi va hokazo). Ko'pgina banklarda kredit xodimi faqatgina kredit shartnomalarini ishlab chiqadi va materiallarni tayyorlaydi, tasdiqlash huquqi esa kredit komissiyasiga tegishli. U bank boshqaruvi raisi va tajribali bank boshqaruvi xodimlaridan tashkil topadi.

Kredit shartnomasining asosiy shartlari bo'yicha kelishuvga kelingandan keyin kredit bo'limi xodimi kredit shartlarini jamlovchi hujjat tayyorlaydi. Bu hujjat kredit shartnomasi nomi bilan yuritiladi: u kredit komissiyasiga tasdiqlash uchun beriladi. Komissiya majlisida bank xodimi shartnoma foydasiga ma'lumotlar keltiradi, uning kuchli va bo'sh tomonlarini ko'rsatadi.

Kredit komissiyaning ijobiy qarori kredit bo'limi xodimiga huquqshunos bilan birgalikda kredit shartnomasi tuzish huquqini beradi.

Kredit shartnomasini qarz oluvchi korxonalar raxbari va bank boshqaruvi xodimlari imzolaydilar.

To'rtinchi bosqich: Kredit shartnomasi shartlari bajarilishi, kreditlarning maqsadli ishlatilishi va o'z vaqtida qaytarilishi ustidan nazorat.

Bunday nazoratning asosiy maqsadi-davomiy tarzda navbatdagi qarz bo'yicha foizlar to'lanishini ta'minlash.

Kreditlarning qaytarilishi bilan bog'liq qiyinchiliklar tasodifan va birdaniga kelib chiqmaydi. Tajribali bank xodimi bunday qiyinchiliklarni ularning boshlanishidayoq aniqlab olishi mumkin va u muammoni hal qilishni hamda bankning foydasi uchun choralar ko'rishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, baholashning haddan tashqari konservativ hisoblash amaliyotlari natijasida yoki daromadni boshqarish vositasi sifatida foydalanilgan taqdirda, kredit layoqatliligi haqida ma'lumot bermasligi mumkin⁹.

Bu choralarni vaziyat izdan chiqquncha amalga oshirish kerak. SHuni ham inobatga olish kerakki, bankning zararlari qarzning qaytarilmasligi va

⁹ <http://aaajournals.org/doi/full/10.2308/atax-51846>

foizlar to'lanmasligi bilangina cheklanib qolmaydi. Bankka keltirilgan zarar ancha ko'p va u boshqa sharoitlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Kredit faoliyati davrida, yuqorida aytilganidek, qarz oluvchi bankka buxgalteriya balansini, moliyaviy natijalar haqidagi hisobotni, naqd pul oqimi haqidagi hisobotni va boshqa hisobotlarni topshirib turishi kerak.

Kreditdan unumli foydalanish joylarda, korxonalar va tashkilotlarda, qoida bo'yicha, har chorakda tekshirilishi kerak. Bu korxonalar faoliyat sohasi xususiyatlariga va xarakteriga (oldi-sotdi, ishlab chiqarish faoliyati, fermer xo'jaligi) bog'liq.

Tekshiruvdan keyin eng yaxshi variant-qarz oluvchi bilan birgalikda korxonalar faoliyatining barqarorligi, tiklash va moliyaviy ko'rsatkichlarni tuzatish uchun choralar ko'rish rejasini tuzish bo'ladi.

Agar bu harakatlar maqsadga olib kelmasa, bank o'z foydasini ta'minlash kerak. U qarz oluvchidan to'lovni talab qilishi, ta'minotni (garovga qo'yilgan mulkni) sotilishini talab qilishi kerak. Oxirgi variant-qarz to'lamayotgan shaxsni bankrot deb e'lon qilish, lekin bu ikkala tomon uchun ham tavsiya etilmaydi. Qaytarilishi muammoli kreditning aniqlashda birinchi qadam-xolis bo'lgan vaziyatni tekshiruvdan o'tkazgandan keyin qarz oluvchining holatini aniqlab olish (u vaziyatni to'g'rilamoqchi, unga ishonish mumkinmi, boshqaruv foydalilikni tiklay oladimi) kerak.

Bundan tashqari, bankning holatini ham hisobga olish, uning umidsiz qarzlari miqdorini bilish kerak. Agar ko'p bo'lsa, qimmat turadigan sudga oshirish operatsiyasini boshlash kerak emas, qarzning bir qismidan kechib ishni tinch kelishuv bilan hal etishni taklif qilish kerak.

Kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligi har ikki tomonga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. SHunday ekan, bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyati kredit berish jarayonini to'g'ri tashkil o'linishiga ham bog'liq. CHunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, bankdan olingan kredit, kredit olishdan oldin tuzilgan biznes rejaga asosan ishlatilishi (maqsadli ishlatilishi) kerak. Buning ustidan bank doimiy ravishda nazorat olib boradi. Hozirgi kunda

qarz oluvchilar tomonidan biznes-rejani ahamiyatsiz, faqatgina kredit olish uchungina zarur bo'lgan hujjat deb hisoblanishi hollari amaliyotda uchrab turadi. Bunday holda bank kreditidan samarali foydalanish imkoniyati cheklanib qolishi yoki biznes-rejada ko'rsatilmay qolgan, haqiqatda mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish mumkin bo'lmay qolishi mumkin.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, bank kreditidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Biznes-reja qarz oluvchi korxonalar iqtisodchilari va buxgalteriya xodimlari tomonidan ishlab chiqilsa (hozirgi kunda aksariyat hollarda bank yoki konsalting firmalari tomonidan tuzilmoqda).

Buning natijasida ishlab chiqarish xususiyatlari korxonalar xodimlari tomonidan o'rganilishi va uni hisobga olgan holda biznes-reja tuzilishiga erishiladi.

2. Biznes-rejada inflyasiya sur'atlari ham hisobga olinsa.

Buning natijasida xom-ashyo qiymatini oshishi, mahsulotni sotilmay qolish ehtimolligi va hokazolarni hisobga olgan holda biznes-reja tuziladi.

3. Biznes-reja tuzishda bozor yaxshi o'rganilsa, ya'ni ishlab chiqarish ko'zda tutilgan mahsulotga talab va taklif, o'rnini bosuvchi tovarlar qiymati va h.k.

4. Biznes-reja sug'urtalansa. Bu bilan biznes-rejaga asosan amalga oshirilgan operatsiyalardan zarar ko'rilishidan himoyalanaadi. Bunda bank tomonidan garovga mulk qo'yilishini talab qilish zarurati ham qolmaydi. Bundan tashqari mulkni garovga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (sug'urtalash, baholash, tasdiqlash va hokazo) kamayadi. Kredit qaytarilmagan, ya'ni biznes-reja amalga oshmay qolganda ham korxonalar sug'urta kompaniyasi to'lab bergan mablag' hisobidan kreditni qaytarish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida qarz oluvchini sug'urta kompaniyasi tomonidan nazorat olib borish zaruratini vujudga keltiradi.

Qarz oluvchini olingan qarz bo'yicha bank va sug'urta kompaniyasi tomonidan nazorat qilib borilishi olingan kreditdan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

2-bob bo'yicha xulosa

Korxonalarining mulki ta'sischi mulki bo'lib hisoblanadi. Korxonalar o'z faoliyati davomida aylanma mablag'lari etishmasligi natijasida bank kreditlaridan foydalanishi mumkin. Bankdan kredit olinishida esa korxonaga, ya'ni mohiyati bo'yicha ta'sischi mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulklar garovga qo'yiladi.

Kreditdan foydalanish natijasida korxonalar olgan foydasi dividend tariqasida ta'sischi mulk orasida taqsimlanadi. Zarar ko'rilgan taqdirda yoki kreditni o'z vaqtida qaytarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, garovga qo'yilgan mulk ya'ni ta'sischi mulki olingan kredit va kredit foizi sifatida kredit beruvchi tashkilot, ya'ni bankka to'lab beriladi. Demak korxonalar olgan kreditdan to'g'ri foydalanmasligi yoki foydalana olmasligi natijasida ko'rilgan zarar ta'sischi mulklarining ham zarari bo'lib hisoblanadi.

Qarz oluvchilar banklardan kredit olishdan oldin o'zaro kredit shartnomasini tuzadilar va kreditdan foydalangan uchun to'lanadigan foiz shu shartnomaga asosan tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» ga asosan bankdan olingan kreditga to'lanadigan foizlar moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar tarkibiga kiritilib, qaytarilish muddati o'tib ketgan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan qayta moliyalash stavkasidan ortiqcha bo'lgan kredit foizi bo'yicha to'lovlar qayta soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladi va foyda (daromad) solig'iga tortiladi. (Korxonalar xarajatlarining tasnifi 5-ilovada keltirilgan). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan qayta moliyalash stavkasidagi qismi schyotlar

rejasiga muvofiq moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar 9610 – «Foiz ko'rinishidagi xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun, jamiyatning kuzatuv kengashi qoshida bank kreditlaridan foydalanish istiqbollarini baholash komissiyasi tashkil qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Komissiya tomonidan kreditga bo'lgan zarurat va undan foydalanish darajasi, kredit resurslari bozoridagi raqobat muhiti va kreditni arzonroq bahoda, qulayroq shartlarda olish imkoniyatlari, kreditdan foydalanish natijasida olinishi ko'zda tutilgan foyda miqdoriga erisha olish imkoniyati, kreditni qaytara olish qobiliyati, kredit shartnomasining shartlari va bu shartlarni bajara olish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi. Komissiya asosiy e'tiborni kreditni korxonaga foydaliligi darajasini aniqlashga qaratadi. Komissiya tarkibiga korxonada rahbarining moliyaviy masalalar bo'yicha muovini, bosh hisobchi, reja bo'limi boshlig'i, bosh muhandis bilan birga, albatta xolis auditor ham jalb qilinishi kerak deb hisoblaymiz.

3-BOB. KORXONALARDA BANK KREDITLARI TAHLILI

3.1. Korxonalarda bank kreditlari muddati va maqsadliliigi tahlili

Kreditning muddatligi- bu olingan kreditni o'z vaqtida qaytarib berishligi bilan tavsiflanadi. Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan malum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o'z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o'z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo'llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatligi kelib tushuvchi boyliklarni tejamli va qayta ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish, tovarlarni sotish muddatlariga va pirovard natijada aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

Olingan kreditning maqsadli ishlatilganligi muhim masala hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazo aniq biror ob'ektga maqsadli yo'naltirilganligi korxonalar bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxonalar olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko'rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq ob'ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish

zaxiralariga, tayyor mahsulotga, jo‘natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo‘lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z ixtiyori bo‘yicha ishlatiladi.

Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo‘llaniladi, o‘rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo‘llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

O‘zining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxonalar va tashkilotlarni bir necha guruhlarga bo‘linishi mumkin.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo‘yicha kreditlar savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik sub’ektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiyatiga ega bo‘lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha oldi sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasi vositachilari: broker, makler, dilerlik firmalariga ham beriladi.

Ko‘chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi ham mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, hatto ba’zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma’lum bir tijorat bankning boshqa turlardagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu me’yorning aniq miqdori (foiz stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Kreditlarning maqsadligini tasniflashda ularning uzoq va qisqa muddatga kreditlarga bo‘linishiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Odatda, uzoq muddatli

aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan uzoq muddatli kreditlar, joriy aktivlarni moliyalashtirish uchun qisqa muddatli kreditlar jalb etiladi. Farqlash muddati sifatida bir yildan oshiq va bir yilgacha muddat chegaralangan.

Kreditning maqsadli ishlatilishi va muddatligini o'rganishdan tashqari ulardan oqilona foydalanish darajasini, samaradorligini ham baholash lozim.

Bu nafaqat kredit va foiz summasini bankga qaytarib to'lashni, bundan tashqari, shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxonaga qancha samaradorlikka erishishayotganligini ham baholash imonini beradi.

Kreditlar albatta ma'lum bir loyihalarning bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishdan oldin loyihani bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'larning samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur.

Agar iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda korxonaga, tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo'yiladigan mablag'larning samaradorligi muxim e'tibor qaralishini ko'rishimiz mumkin.

Agarda loyihaga qo'yiladigan mablag'lar iqtisodiy va moliyaviy samara beradigan bo'lsa, shu loyiha uchun mablag' ajratiladi.

Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Samaradorlik kreditning tamoyillarining ham bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi.

Ishlab chiqarish va sotish hajmi qanchalik katta, kredit resurslarining aylanish davri qanchalik qisqa bo'lsa kredit qo'yilmalarining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Kreditlarning muddatligi uning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalb etishda uning kaytarilishiga muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit resurslar kechiktirilgan to'lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda kaytariladi.

Agar to'lovlar va foizlar o'z vaqtida amalga oshirilsa ushbu mijozning kreditor oldidagi ishonchi ortadi. Bu holat esa mijozning kredit tarixiga yoziluvchi eng muhim jihatdir.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarni jalb qilishda likvidlikni boshqarish faoliyati ko'rsatkichi juda muhim hisoblanadi. Bu bo'limda joriy majburiyat, inventarlar va olinadigan schotlarga asoslangan uchta boshqarish faoliyati ko'rsatkichlari muhokama qilinadi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta'sir etmaydi. Ya'ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo'yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda muttatliligi bo'yicha kreditlar va qarzlar uzoq, urta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli tarkiblanishi belgilangan. Shu sababli kredit va qarzlarni ham muddatligi bo'yicha uzoq va qisqa muddatli shaklda tarkiblash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uzoq muddatli kreditlarni uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalar, nomoddik aktivlar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan asbob uskunalar yuzasidan, ularni sotib olish, ko'rish, ta'mirlash, ilmiy yangiliklar kiritish kabi yo'nalishlarda) shakllantirishga yo'naltiriladigan va bir yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlardir. .Qisqa muddatli kreditlar joriy, aylanma aktivlarni to'ldirishga. savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha muddatga beriladigan kreditlardir

Firma va kompaniyalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga va investitsion loyihalarga e'tiborish berish lozim. Lekin ungacha albatta, ushbu firma yoki kompaniyaning, moliyaviy ahvoli o'rganilishi lozim. Kredit resurslarini jalb etishning turli risklarini ham ta'kidlab o'tish lozim deb o'ylaymiz. Masala. Bir necha yildan buyon faoliyat yuritayotgan korxonaning moliyaviy holatini tahlil etishning axborot manbayiga egamiz va uning kreditni jalb etish bayonnomasini tuzishda unga tayanish mumkin. Lekin yangi tashkil topgan korxonalar yoki faoliyatini

endigina yo`lga qo`ygan korxonaning moliyaviy hisobotlari tuzilmagan xollarda, uning moliyaviy ahvolini qanday baholash mumkin. Shu va shu kabi savollarga ushbu mavzuda albatta to`liq javob berishga harakat qilamiz. Birinchidan; endigina faoliyat boshlagan yoki ro`yxatga olingan korxonaning albatta, ustav kapitali shakllanganligiga ahamiyat beriladi. Ustav kapitalining darajasi va uning biznesni yo`lga qo`yishdagi, tarmoq bo`yicha o`rtacha darajaga nisbatan holatini baholash orqali ham fikr yuritish mumkin. Shuningdek, loyihaning jozibadorligi, kafillik shartlari asosida ham kredit shartnomasini rasmiylashtirish mumkin.

Kredit arizasi bergan firma yoki kompaniyaning moliyaviy tahlilida muhim ko`rsatkichlar sifatida birinchi navbatda uning to`lov layoqati, qoplov koeffitsenti baholanadi. Bu koeffitsentlar asosida firma va kompaniyaning, choraklar va yillar bo`yicha to`lovga qobillik darajasi, o`zining muddatli majburiyatlarini to`lashga qobilligi baholanadi.

Baholashda salbiy holatning sezilarli darajada oshishi va kredit reytinglarida bir vaqtning o`zida hamda kelajakda o`zgarish o`rtasidagi salbiy munosabatlar, firmalarning kredit layoqatliligining umumiy o`lchovi hisoblangan yuqori darajadagi salbiy holatga mos keladigan dalillardir¹⁰.

Firma va kompaniyalarning tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to`lovga qobilligiga balki uning mablag`larining harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog`liq. Shu sababli tahlil etishda buxgalteriya balansi ma`lumotlari asosida firma va kompaniyalarning harakatchan mablag`larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlarga, nolikvid mablag`lar holatiga, ularning to`lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddati majburiyatlarga nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag`larni manbalashdagi holatiga baho berish talab etiladi.

So`ngi paytlarda olingan kredit resurslarining o`z vaqtida va qaytmaslik hollariga moliya institutlari tomonidan ko`p duch kelinmoqda. Shu sababli firma

¹⁰ <http://aaajournals.org/doi/full/10.2308/atax-51846>

va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo`shimcha tarzda quyidagi mavzularni o`rganish tavsiya etiladi;

- firma va kompaniyalarning rentabellik darajasi;
- aylanma mablag`larning holati;
- o`z mablag`larini hajmi, ularning asosiy va oborot kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o`shish darajalari;
- to`lov muddati kelgan va o`tib ketgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
- firma va kompaniyalarning pul va qimmatli qog`ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlarga ahamiyat beriladi.

Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlilda o`rganiladigan ko`rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko`rsatkichlarni o`rganilishini harakterlash lozim. Bu ko`rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- 1.To`lov layoqati va likvidlilik koeffitsentlari
- 2.Ish aktivligi koeffitsentlari
- 3.Moliyaviy leveraj koeffitsentlari
- 4.Rentabellik koeffitsentlari
- 5.Qarzni koplashni tavsiflovchi koeffitsentlar

3.2. Korxonalarda bank kreditlaridan samarali foydalanishning kompleks tahlili

Korxonalar bank kreditlari jalb qilishdan asosiy maqsad moliyaviy mablag`ga bo`lgan ehtiyojni qoplash hisobiga faoliyatni yuqori foyda bilan yakunlashga erishishdir. Bank kreditlaridan samarali foydalanganligini kompleks tahlil metodi yordamida tahlil qilish aniq va to`liq baholash imkonini beradi.

Bank kreditlaridan samarali foydalanishni tahlil qilishning kompleks metodi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- korxonalar likvidlilik ko‘rsatkichlari va balans likvidligi tahlili;
- korxonalar mablag‘lari aylanishini tahlili;
- korxonalar faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili;
- moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili;
- bank kreditlaridan samarali foydalanishni skoring modeli.

Korxonalar likvidlilik ko‘rsatkichlari va balans likvidligi tahlili. Balans likvidligi tahlili korxonalar bank kreditlaridan samarali foydalanishni tahlilida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidligi (aylanuvchanligi) ni baholashda aktivlar, kapital va majburiyatlar harakatchanligi va to‘lov muddat bo‘yicha qo‘yidagicha tarkiblanadi.

8-jadval

Balans aktiv va passiv moddalarining likvidligi bo‘yicha tarkiblanishi¹¹

Aktiv moddalar tarkiblanishi			Passiv moddalar tarkiblanishi		
A1	YUqori likvidli aktivlar	Pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar	P1	Tez to‘lanishi kerak majburiyatlar	Kreditorlik qarzlari
A2	Tez sotiluvchi aktivlar	Debitorlik majburiyatlari (12 oy davomida pulga aylanuvchi)	P2	Qisqa muddatli passivlar	Qisqa muddatli kredit va qarzlari
A3	Sekin sotiluvchi aktivlar	Ishlab chiqarish zaxiralari, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar (12 oydan oshuvchi debitorlik majburiyatlari)	P3	Uzoq muddatli passivlar	Uzoq muddatli majburiyatlar
A4	Qiyin sotiluvchi aktivlar	Uzoq muddatli aktivlar	P4	Doimiy passivlar	O‘z mablag‘lari manbai

Quyidagi shartlar bajarilganda korxonalar balansi likvid hisoblanadi:

¹¹ <http://finzz.ru>

$A1 > P1$ – korxonaning tez to‘lanishi kerak majburiyatlari yuqori likvidli aktivlar bilan qoplanishi.

$A2 > P2$ – korxonaning qisqa muddatli passivlarini tez sotiluvchi aktivlari bilan qoplanishi.

$A3 > P3$ – korxonaning uzoq muddatli passivlarini sekin sotiluvchi aktivlar bilan qoplay olishi.

$A4 < P4$ – korxonaning doimiy passivlari qiyin sotiluvchi aktivlaridan yuqori bo‘lishi.

Balans likvidligi tahlilida korxonaning majburiyatlarini mablag‘lari bilan qoplay olishini ko‘rishimiz mumkin. Balans likvidligi tahlili aktivlar va passivlar tarkibini baholash imkonini beradi. Keyingi bosqichda korxonaning likvidlik ko‘rsatkichlari tahlilini ko‘rib o‘tamiz va qo‘yidagi likvidlik koeffitsientlarini hisoblaymiz: joriy likvidlik koeffitsienti, tez likvidlik koeffitsienti va mutloq likvidlik koeffitsienti.

9-jadval
Korxonaning likvidlik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi¹²

Aniqlash tartibi	Korxonaning likvidlik koeffitsientlari	Me‘yorlari
$K_{jl} = A1 + A2 + A3 / P1 + P2$	Joriy likvidlik koeffitsienti. Korxonaning joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi	$K_{tl} > 2$
$K_{tl} = A1 + A2 / P1 + P2$	Tez likvidlik koeffitsienti. Korxonaning tez likvidlik aktivlari joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi	$K_{bl} > 0,7$
$K_{ml} = A1 / P1 + P2$	Mutloq likvidlik koeffitsienti. Korxonaning pul mablag‘lari joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi	$K_{abl} > 0,2$

Korxonaning mablag‘lari aylanishini tahlili. Kompleks tahlilning keyingi muhim qatori bu aktivlarning aylanish darajasiga baho berishga ya‘ni, korxonaning ish aktivligini o‘rganishga qaratiladi.

Aylanish ko‘rsatkichlari korxonaning o‘z mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Korxonaning aktivlarining har bir turlari bo‘yicha

¹² <http://finzz.ru>

aylanish turlari yuqori bo'lsa, shunga mos ravishda bank kreditlaridan foydalanish samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Amaliyotda bank kreditlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda qo'yidagi koeffitsientlardan foydalanamiz:

- korxonaning joriy aktivlari aylanish ko'rsatkichlari;
- korxonaning debitorlik qarzlari ko'rsatkichlari;
- korxonaning kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlari;
- tovar moddiy zahiralari aylanuvchanligi.

Korxonaning joriy aktivlari aylanish koeffitsienti – aktivlardan foydalanish samaradorligini va aylanish tezligini ko'rsatadi.

$Kak = \text{MST (010 satr 2-shakl)} / \text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati}$
(Ayb+Ayo/2 1-shakl 400, 780 satr)

Korxonaning debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti – debitorlik qarzlari aylanishi tezligini va davrini ifodalaydi.

$Kdm = \text{MST (010 satr 2-shakl)} / \text{Debitorlik majburiyatlari o'rtacha yillik qiymati}$
(Dmdb+Dmdo/2)

Korxonaning kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsienti – kreditorlik qarzlarning aylanish tezligini va davrini ifodalaydi.

$Kkm = \text{MST (010 satr 2-shakl)} / \text{Kreditorlik majburiyatlari o'rtacha yillik qiymati}$
(Dmdb+Dmdo/2)

Korxonaning tovar-moddiy zahiralari aylanishi koeffitsienti –Tovar-moddiy zahiralardan foydalanish natijaviyligini ifodalaydi.

$Ktmz = \text{MST (010 satr 2-shakl)} / \text{Tovar moddiy zaxiralar o'rtacha yillik qiymati}$
(Tmzb+Tmzo/2)

Korxonaning faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili. Korxonaning faoliyati foydaliligiga rentabellik ko'rsatkichlari yordamida baho beriladi. Rentabellik ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi, uning natijasida yuqori foyda hisobidan har hil ko'rinishdagi aktivlarni sotib olish imkoniyati yuzaga keladi. Quyidagi eng muhim rentabellik koeffitsientlarini keltirib o'tamiz:

- joriy aktivlar rentabellik ko'rsatkichi(ROA).

- xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichlari(ROE).
- sotish rentabellik ko'rsatkichi(ROS).

Joriy aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi(ROA) – bir so'mlik korxonaga joriy aktivga to'g'ri keladigan sof foydani ko'rsatadi.

$Kar = \frac{\text{Sof foyda (270-satr 2-shakl)}}{\text{Joriy aktivlar (390 satr, 1-shakl)}}$

Xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichlari (ROE) – bir so'mlik korxonaga xususiy kapitalga to'g'ri keladigan sof foydani aks ettiradi.

$Kar = \frac{\text{Sof foyda (270-satr 2-shakl)}}{\text{Xususiy kapital (480-460-470 satr, 1-shakl)}}$

Sotish rentabellik ko'rsatkichi(ROS) – korxonaga savdo faoliyati samaradorligini ko'rsatadi.

$Kar = \frac{\text{YAlpi foyda (030 satr, 2-shakl)}}{\text{mahsulot sotishdan sof tushum (010 satr, 2-shakl)}}$

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili. Bu ko'rsatkich korxonaga moliyaviy mustaqil yoki qaramliligini ifodalaydi. Mablag'lar tarkibida qarz mablag'lari ulushi yuqori bo'lishi, moliyaviy barqarorlik pasayishiga olib keladi.

Korxonaning bank kreditlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda qo'yidagi ko'rsatkichlar ishlatiladi:

- mustaqillik koeffitsienti.
- qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsienti.
- xususiy kapital xarakatchanlik koeffitsienti.

Mustaqillik koeffitsienti – jami mol-mulk qiymatida xususiy kapital ulushini ko'rsatadi. Ushbu koeffitsientning 0,5 dan yuqori bo'lishi korxonaning moliyaviy barqarorligini 0,5 dan past bo'lishi moliyaviy qaramligini bildiradi.

$K_{mus} = \frac{\text{Xususiy kapital ((480-460-470)satr, 1-shakl)}}{\text{jami mol mulk qiymati (780 satr, 1-shakl)}}$

Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsienti – xususiy kapital va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi.

$K_{qo'mn} = \frac{\text{Majburiyatlar (770 star, 1-shakl)}}{\text{Xususiy kapital (480-460-470)satr, 1-shakl)}}$

Xususiy kapital xarakatchanlik koeffitsienti – xususiy kapital tarkibida o‘z oborot mablag‘lar ulushini ko‘rsatadi. Bu koeffitsient normativi $K_{xkxk} > 0,2$ yuqori bo‘lish kerak.

$K_{qo'mn} = O'z\ oborot\ mablag'lari\ ((480+490-130) \text{ satr, } 1\text{-shakl}) / Xususiy\ kapital\ (480-460-470) \text{ satr, } 1\text{-shakl}$

Xulosa qilib aytganda, korxonalarining bank kreditlaridan foydalanish samaradorligini kompleks tahlil qilish aniq natijani ifodalab beradi.

3-bob bo‘yicha xulosa

Olingan kreditning maqsadli ishlatilganligi muhim masala hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazo aniq biror ob‘ektga maqsadli yo‘naltirilganligi korxonalar bilan bank o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi. Korxonalar olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko‘rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq ob‘ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor mahsulotga, jo‘natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo‘lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z ixtiyori bo‘yicha ishlatiladi.

Korxonalar bank kreditlari jalb qilishdan asosiy maqsad moliyaviy mablag‘ga bo‘lgan ehtiyojni qoplash hisobiga faoliyatni yuqori foyda bilan yakunlashga erishishdir. Bank kreditlaridan samarali foydalanganligini kompleks tahlil metodi yordamida tahlil qilish aniq va to‘liq baholash imkonini beradi.

Bank kreditlaridan samarali foydalanishni tahlil qilishning kompleks metodi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonalar likvidlilik ko'rsatkichlari va balans likvidligi tahlili;
- korxonalar mablag'lari aylanishini tahlili;
- korxonalar faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili;
- bank kreditlaridan samarali foydalanishni skoring modeli.

Korxonalar likvidlilik ko'rsatkichlari va balans likvidligi tahlili. Balans likvidligi tahlili korxonalar bank kreditlaridan samarali foydalanishni tahlilida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidligi korxonaning har xil majburiyatlarini tegishli aktivlar bilan qoplay olish qobiliyatini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqillik yillarida turli mulkchilik korxonalari faoliyat ko'rsata boshladilar. Bu korxonalar faoliyati ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukm surgan paytdan farqli ravishda, to'liq xo'jalik hisobiga va etarlicha iqtisodiy mustaqillikka asoslangan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ya'ni korxonalar xo'jalik faoliyatiga davlat tomonidan aralashishni keskin kamaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan hozirgi paytda bank krediti mablag'lari aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish va kapital qo'yilmalarni amalga oshirishning muhim manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. SHunday ekan bank kreditlari hisobini to'g'ri yuritilishi, kredit foizlari va jarimalar hisobini to'g'ri yuritilishi, kredit resurslari bilan ta'minlanishi ustidan nazoratni yaxshilanishi, kredit resurslaridan maqsadli foydalanilishi va kreditlarni qaytarilishini tahlil etib borilishi talab etiladi.

Umuman olganda kredit qaytarilmasligi natijasida, kreditdan to'g'ri foydalanmaslik natijasida ko'rilgan zarar ta'sischi'larga ham ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun korxonalarda bank kreditlari hisobini yuritishni yaxshilash, barchaga tushunarli hisob yuritishga erishish, ya'ni mutaxassis bo'lmagan shaxslarga ham tushunarli tarzda axborotni etkazilishini ta'minlash dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, korxonalarda bank kreditlari hisobi va tahlilini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan bitiruv malakaviy ishi natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Bizga ma'lumki bank kreditlari berilish muddatiga ko'ra quyidagi ikki turga bo'linadi:

- qisqa muddatli;
- uzoq muddatli.

Barcha korxonalarda qo'llanilayotgan amaldagi buxgalteriya hisobining schetlar rejasiga asosan bank kreditlarini hisobga oluvchi ikkita «Banklarning qisqa muddatli kreditlari» va «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» hisobvarag'lari mavjud xolos. Amaldagi schyotlar rejasiga bizningcha yana

7840-«Oʻrta muddatli bank kreditlari» hisobvaragʻini joriy etilishini tavsiya etamiz. Bu hisobvaraqlar balansga nisbatan passiv hisoblanib, uning kreditida bankdan olingan oʻrta muddatli kreditlar, debetida esa oʻrta muddatli kreditlarni qaytarilishi aks ettirilishi mumkin.

2. Hozirgi kunda mavjud adabiyotlarimizda koʻrsatilishicha bankdan olingan kreditlar summasiga:

D_t 5110 K_t 6910, 7510, 7840;

buxgalteriya yozuvi amalga oshirilishi koʻrsatilgan. Lekin olingan bank kreditlari hisob-kitob raqamiga tushmasligini va alohida ssuda hisobvaragʻi ochilishini hisobga olsak, quyidagi buxgalteriya yozuvini amalga oshirish kerakligi kelib chiqadi:

D_t 5530 K_t 6910, 7510, 7840;

3. Korxonalarda bank kreditlari analitik va sintetik hisobini yuritishda qoʻllaniladigan 38-qaydnoma va 4-jurnal orderga qoʻshimcha ravishda kreditlarni hisobga olib borish daftari yuritilishi kerak deb hisoblaymiz. Bu daftarda kreditlashga talluqli barcha muomalalar hisobga olib boriladi.

4. Bank kreditidan foydalanganlik uchun toʻlanadigan foizlar «Moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar» hisoblanib, foyda hisobidan qoplanadi. Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasidan ortiqcha qismi esa soliqqa tortiladigan bazaga qayta qoʻshiladi va uni hisobidan foyda soligʻi hisoblanadi.

Kredit foizlarini ishlab chiqarishga taʼsirini hisobga olib, yaʼni bankdan olingan kredit ishlab chiqarishni rivojlantirish (texnika-texnologiyalar sotib olish, xom-ashyo sotib olish, ish haqi bilan taʼminlash va hokazo) maqsadida olinadi. Bank kreditlari esa foiz toʻlash sharti bilan beriladi. SHuning uchun, kredit foizlari foyda hisobidan oʻqoplanmasdan, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, kredit foizlari miqdori ham bank tomonidan belgilanishini hisobga olib, Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasidan ortiqcha qismi (jarimalardan tashqari) ham ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritilib, mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olinishi kerak deb hisoblaymiz.

5. Bank kreditidan samarali foydalanish imkoniyatini aniqlash uchun qarz oluvchining anketasi to'ldirilishi kerak deb hisoblaymiz. Anketada qarz oluvchining nomi va manzilgohi, anketa tuzish sanasi va tuzish joyi, savol guruhlari va savollar hamda qarz oluvchining javoblari keltiriladi.

6. Bank kreditlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini to'la o'rganib chiqilishi va etarli tahlil o'tkazilishi imkonini oshirish maqsadida kredit olish uchun bankga taqdim qilinishi kerak bo'lgan biznes-rejani qarz oluvchi korxonaning buxgalteriya xodimlari tomonidan ishlab chiqilsa. Bu bilan kreditdan foydalanish natijasida olinishi ko'zda tutilgan natija chuqurroq tahlil qilinishi uchun imkoniyat oshar edi. Hozirgi kunda biznes-reja kredit olish uchungina kerak bo'lgan xujjat deb qaraladi va aksariyat hollarda bank xodimlari yoki auditorlar tomonidan qarz oluvchilarga tuzib beriladi.

7. Korxonalarni kredit resurslari bilan ta'minlanishi auditori bir vaqtning o'zida ikki yoqlama o'tkazilishi kerak. YA'ni, kredit olgan korxonada va kredit beruvchi banklar auditorlik tekshiruvidan bir davrda o'tkazilishi kerak. Bunda kredit olish va berish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni bir-biriga solishtirib tekshiruvni amalga oshirish imkoniyati tug'iladi va kreditlash jarayonida bank tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan suiste'molchiliklarni aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
4. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014 yil 6 may.
5. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonuni(yangi tahriri)2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida”gi PQ–100-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. 2005 yil 6 oktyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida”gi qarori. 2015 yil 28 iyuldagi 207-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi “Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkini zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 215-sonli Qarori;
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» 1998-2008 yillar.

11. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2015 yil 19 oktyabrdagi 92-son buyrug‘i

12. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Auditorlik faoliyatining milliy standartlari» 1998-2006 yillar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma‘ruzalari:

14. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. -T.: «O‘zbekiston», 2011. 56 bet.

15. Karimov I.A."2014-yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi" -T.: "O‘zbekiston", 2014. 64 b.

16. Karimov I.A. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir " T.: “O‘zbekiston” 2015y. 72 bet.

17. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berishdir” T.: “O‘zbekiston” 2016y. 88 bet.

18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-48 b.

3.Darslik va o'quv adabiyotlari:

21. M.K.Pardaev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov Iqtisodiy tahlil:O'quv qo'llanma.-T, 2017.534b.

22. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibroximov A.T. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013. -600 b.

23. Sagdillaeva Z, Choriyev I, Mahmudov A, Yuldasheva U. Iqtisodiy tahlil. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2018.-404 b.

24. Basovskiy L.E., Basovkaya E.N. i dr. "Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности": Учебное пособие. – М.: INFRA-M, 2009. – 366 s.

25. Ionova A.F., Selezneva N.N. Finansovyy analiz: ucheb.-M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 624 s.

26. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi.-T.: SHarq. 2004.-592 b.

27. Sotivoldiev A.S., Itkin YU.M. Zamonaviy buxgalteriya hisobi.- T.: O'zbekiston BAMA nashr. 1-P-tom. 2002.-122 b.

28. Shog'iyosov T.SH. Kompleks iqtisodiy tahlil. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. -220 b.

29. Rahimov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlaru moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. TMI.-T.: "Iqtisod-Moliya" 2015. 392 b.

30. Mamatov B.SH., Qulliev I.YA., Pulatova M.B. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash amaliyotini takomillashtirish. Monografiya.-T.: Extremum-press, 2016.-112 b.

31. Jumaniyozov K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolari. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2004.

32. Saidov D.A. Tijorat banklarining kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari. Monografiya.-T.: Iqtisod-moliya, 2015.-120 b.

33. Pardaev M. Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari.: Iqt. fan. dokt. dis....avtoref.-T.: O‘zR BMA. 2002.

34. Roger H. Hermanson James Don Edwards, Michel W. Maher. Accounting a Business Perspective. Sixth edition 2005. 369p.

35. Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Financial Accounting. Miami University Press, 2008. 524p.

4.Davriy nashrlar(Gazeta va jurnallar)

36. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Toshkent oqshomi 2017.- № 25-b.

37. Mavlanov N. Sovremennaya metodika otsenki i analiza kreditosposobnosti xozyaystvuyushix sub’ektov: teoriya i praktika. Xalqaro moliya va hisob. Elektron jurnal.-Toshkent, 2018 yil 1-soni,13 b.

38. Mavlanov N. Korxonalar kreditga layoqatliligini baholash va uni kompleks tahlilini takomillashtirish. Xalqaro moliya va hisob. Elektron jurnal.-Toshkent, 2016 yil 3-soni, 9 b.

5.Internet saytlari

39. <http://www.gov.uz>. (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)

40. <http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

41. <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta’lim tarmog’i)

42. <http://www.lex.uz> (O‘z. Resp. qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

43. <http://www.bem.uz> (BEM trening tsentr)

44. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi)

45. <http://www.soliq.uz> (O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi)